



dastlabki oylarda (va hattoki yillarda ham) bu pediatr va jarrohlarning e'tibori predmeti bo'lib qoladi.

Ko'p bolalarda odatda kechki payt va kechqurun kuchayib ketuvchi bezovtalik va qo'rquv holatlari aniq ifodalangan bo'ladi. Noaniq, sababsiz bezovtalik odatda qisqa muddatli bo'ladi va tez o'tib ketadi, biroq tez orada aniq vahimaga aylanadi: bir o'zi qolib ketishi, onasini yo'qotib qo'yish, bola onasi uni bog'chadan olib ketmasligidan qo'rqadi, onasi ishdan qaytayotganida uni mashina urib yuborishidan yoki uni bezorilar o'ldirib ketishidan xavfsiraydi. Shu bilan bir qatorda o'zi to'g'risidagi, o'zining sog'ligi, hayoti, kelajagi uchun xavotirlik ham qo'shiladi: “Katta bo'lsam va birdan yomon odamga aylanib qolsam, bezori bo'lib ketsam va qamoqqa tushsamchi? To'satdan urush boshlansa, barcha tirik mavjudotlar halok bo'lsa, havo ham, suv ham, ovqat ham etmay qolsachi? Ota-onam o'lib qolsa, keyin qanday yashayman?” Bezovtalikning eng yuqori darajasi – bu atrofda barcha narsalardan xavfsirash holatidagi umumiy, diffuziyali va asossiz bezovtalikdir. Sarosimaga soluvchi buzilishlar yuzaga kelishi ehtimoli ham mavjud: yuragi urib ketishini his qilish, yurak sohasidagi og'riqlar, bosh aylanishi, ko'ngil aynashi, et uvishishi, tez-tez nafas olish. Bu holat ko'pincha aniq ifodalangan o'limdan qo'rqish, yopiq joyda qolib ketishdan xavfsirash bilan birga kechadi.

Depressiya turli yoshda turlicha namoyon bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarda ota-onalar ishtahaning yo'qolishiga, vazn qo'shilishining to'xtab qolishiga, injiqlikka hamda harakatlarning sustligiga ahamiyat beradilar. Maktabgacha bo'lgan yoshda asosan sog'liq holatining o'zgarishi, va shu bilan birga odatiy depressiya alomatlari birinchi o'ringa chiqadi: past ovoz, g'amgin yuz ifodasi, yuz harakatlarining kamligi, keksalarcha qadam tashlash.

Kichik yoshdagi maktab bolalarida esa ko'proq quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi: odamovilik, befarqlik, o'yinlarga bo'lgan ishtiyoqning so'nishi, xorg'in kayfiyat. Biroq 12-13 yoshgacha bo'lgan bolalardan “qayg'u” yoki “siqilish” bilan bog'liq bo'lgan shikoyatlarni juda kam hollarda eshitish mumkin. Bolalar ko'pincha ular “zerikkanlari”, “hamma narsa zerikarli ekanligini”, “chidab bo'lmasligini”, “yig'lagisi kelayotganligini”, “yuragida tosh borligini”, “qorong'u devor ekanligini” aytib shikoyat qiladilar.

O'rni kelganda aytib o'tish lozimki, bolaning atrofda kechayotgan hayotga bo'lgan qiziqishi pasayganini bildiruvchi, “zerikish”dan shikoyat qilishi - bu bolalar depressiyaning eng ko'p namoyon bo'luvchi jihatlaridan biridir. Bunda depressiyaga duchor bo'lgan kattalardan farqli ravishda bolalarda, bola qancha kichkina bo'lsa, shunchalik yuqori darajadagi yig'loqilik yoki doimiy ravishda yig'lashga tayyor turish holatlari ajratib ko'rsatiladi.

Depressiya holatiga duchor bo'lgan bolalar arziyas sabablar tufayli ham yig'layveradilar: xafa qilishsa, tanbeh berishsa yoki maqtab qo'yishsa, uyga begona kishi kelsa. Shuningdek, kuchli hissiyotlilik, ko'ngilchanlik (bolalar hattoki singan gul, arralab tashlangan archa, o'ldirilgan qumursqa ustida ham yig'lab o'tirishlari mumkin), jonsiz predmetlarga ham achinib o'tiradilar. Ular onalarini o'z yonlaridan qo'yib yubormaydilar, ularni qo'lga ko'tarib olishini, allalashini so'raydilar, ularning nutqida





go'daklarga xos bo'lgan ohanglar paydo bo'ladi. Shu bilan birga bolalar g'amgin emas, balki ma'yus va xo'mraygan bo'lib ko'rinadilar.

Kattalardan farqli ravishda bolalar depressiyasida “aybdorlik yo'nalishi” tashqariga yo'naltirilgan bo'ladi. Bolalar ota-onalarining ularga bo'lgan munosabatlaridan norozi bo'ladilar, o'zlarini noxush his qilishlarida ota-onalarini aybdor sanaydilar, ularga nisbatan ko'plab talab va ta'nalar yog'diradilar. Ota-onalarining sevgilariga shubha bilan qaragan holda ular kun davomida bir necha marotaba aynan bir savolni beraveradilar: “Sen meni yaxshi ko'rasanmi?”, biroq ularning ijobiy javob olgandagi xotirjamliklari uzoqqa cho'zilmaydi, ular yaqinlarining ko'zlariga tikiladilar, sodda usullar bilan ularning muhabbatini tekshirib ko'rinishga urinadilar. Ota - onalarning har qanday nasihatlari, noroziliklari baqir-chaqir, yig'i, noo'rin do'q-po'pisalar va harakatlar, hattoki oshkora o'z joniga qasd qilishga urinishlar kabi harakatga oid bezovtalikka sabab bo'ladi. Bolalar depressiyaning ilk jihatlaridan biri bu maktabga moslasha olmaslikdir. Bu, odatda, sekin-asta, o'quv materiallarini o'zlashtirish va eslab qolishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'lgan holda rivojlanib boradi. Bolalar uy vazifasini bajarishga ko'proq vaqt sarflay boshlaydilar, o'qigan narsalarini tushuna olmaydilar.

Bolalarga xos bo'lmagan sustkashlik, qovushimsizlik paydo bo'ladi. Bolalar uzoq vaqt davomida kiyinadilar, tanaffusda o'rtoqlari bilan o'ynashga ulgirmaydilar, jismoniy tarbiya darslarida lanj va beso'naqay ko'rinadilar, sekin-asta jismoniy harakatlarni talab etuvchi sport majmualariga borishdan yiroqlashadilar. Ahvoli yaxshilangan davrlarda bola ertagayoq maktabga borishga, darslarini tayyorlashga va'da beradi, portfeliga kitob-daftarlarini joylashtiradi, biroq ertalab yo o'z va'dasini bajarishdan bosh tortadi, yoki maktab eshigiga etib borgan joyidan ortga, uyga qaytib keladi. O'z holatini to'g'ri tushuntirib bera olmaydi, barcha savollarga “qilolmayman”, “xohlamayman” deb javob qaytaradi yoki har safar yangi ahamiyatsiz sabablar topadi.

Kasallik yoki ta'til tufayli ota-onasi maktab haqida gapirmay qo'rganlarida u xotirjam va quvnoq bo'lib yuradi. “Maktab fobiyasi”ning bu kabi holati 3-4 yil davom etishi mumkin. Depressiya holatining rivojlanishiga tashqi omillar kabi ichki omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni (4 yoshgacha bo'lgan) eng ko'p jarohatlovchi omil onasidan, oilasidan (kasalxonaga, sanatoriyaga, sutkalik bog'chaga, yaslga, go'daklar uyiga va h.k.larga joylashtirish) ajratilishidir, 5 yoshdan oshgan bolalar uchun esa – uzoq davom etuvchi noxush oilaviy ahvoldir (janjallar, ota-onalarning shafqatsizligi, ajralishlar, ota-ona o'limi). 7 yoshdan boshlab esa depressiya holatini keltirib chiqaruvchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan omil, maktab bilan bog'liq muammolar (sinfni, o'qituvchini o'zgartirish, tengdoshlaridan ortda qolish, o'qituvchining haqoratomuz munosabati) hisoblanadi. Bola yoshidagi depressiyaning qisqa muddatliliigi, tezkorligi juda kam uchraydi: depressiya holatining odatdagi davomiyligi 1-3 oy, bir yil yoki undan ham ortiq. Bunda depressiv simptomatikaning tezkorligi o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi, u bolaning oilaviy vaziyati va jismoniy holati bilan bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:





1. Sarjveladze N. I. “Shaxsiyat va uning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta‘siri”. Tbilisi, 1989 yil. – B. 70.
2. Vigotskiy L.S. “Bolaning shaxsiyati va dunyoqarashini rivojlantirish matn.” / L. S. Vygotskiy / / shaxsiyat psixologiyasi. Matnlar: o‘quvchi; Ed. M.: Moskva davlat universiteti, 1982. - B.74.
3. Kraig G. “Rivojlanish psixologiyasi”. 9 - nashr Spb.: Piter, 2007 yil. – B. 214.
4. Leontiev A. N. “Faoliyat. Ong. Shaxsiyat.” M.: Politizdat, 1977. – B. 56.

